

FORTEPIANODA IJRO ETISHNING TEXNIK IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Polatxanova Nargiz Shamilyevna
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Maqolada fortepianoda ijro etishning texnik imkoniyatlarini rivojlantirish yo‘llari, ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir mashqlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: fortepiano, texnik imkoniyat, ijro yo‘llari, shtrix, gamma, xromatik gammalar, “oddiydan murakkabga” prinsipi

DEVELOPMENT OF TECHNICAL POSSIBILITIES OF PIANO PERFORMANCE

Nargiz Shamilyevna Polatkhanova
State Conservatory of Uzbekistan

Abstract: The article contains information about the ways to develop the technical capabilities of playing the piano, exercises for the formation of performance skills.

Keywords: piano, technical possibility, ways of performance, bar, gamma, chromatic gammas, principle “from simple to complex”

Fortepiano o‘ziga xos xususiyatga ega cholg‘u turi bo‘lib, ijroda tovushning tiniq, ravon chiqishi uchun uning imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan bilish hamda ijro etish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish talab etiladi. Ijro etilayotgan asarlarni qismlarga va qismlarni jumla va frazalarga bo‘lish orqali musiqaning mukammalligiga erishish mumkin. Bir nechta musiqiy jumladan esa asarning qismi paydo bo‘ladi. Yangi asarlarni o‘zlashtirish jarayonida har bitta fraza, jumla uchun alohida tovush kuchi talab etilishi mumkin. Ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir mashq va kichik kuylar taklif etilayotgan mashqlarni turli shtrixlarda va har xil harakatlarda qo‘llab, barmoqlar texnikasining fikrlash tezligini birinchi darslardan boshlab rivojlantirish zarur.

O‘qituvchi har bitta talabaga o‘z ijrosini mukammal darajada bo‘lishiga yordam berishi kerak. Ijro etilayotgan asarlarni qismlarga va qismlarni jumla va frazalarga bo‘lish orqali musiqaning aniq ijro etishga erishiladi deb aytib o‘tdik. Bir nechta musiqiy jumladan esa asarning qismi paydo bo‘ladi. Yangi asarlarni o‘zlashtirish jarayonida har bitta fraza, jumla uchun alohida tovush kuchi talab etilishi mumkin.

Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish ijrochilikda doim ham ijro uchun zarur bo'lgan shtrixlar ko'rsatilmaydi. Shuning uchun har bitta asar ijrosi davrida o'qituvchi ma'lum nota tovushlarini tegishli shtrixda (fortepianoda) ijro etish lozimligi bo'yicha vazifa qo'yadi va talabning shu xos shtrixlarga amal qilishini talab qiladi. Agar talaba o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifani to'liq bajara olmasa, o'qituvchi notalar ustiga tegishli shtrixlarni yozib qo'yishi kerak bo'ladi. Cholg'u ijrochiligida ijro usullarini (chap va o'ng qo'lning holatlari)ni to'g'ri tanlash ham talab etiladi. Bu esa ijro texnikasidan unumli foydalanishni ta'minlaydi. Stakkato Nota ustidagi yoki tagidagi nuqtalar, ushbu tovushlarni qisqa va uzib chalish kerakligini bildiradi. Ayrim hollarda ushbu usul stakkato (uzib chalish) so'zi bilan ham beriladi.

Ijro texnikasini o'stirishda mashqlarning ahamiyati katta. Odatda mashqlar o'rganilayotgan asardagi murakkab joylarni o'zlashtirishga xizmat qiladi va shu bois mashqlar o'qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Talabning ijro mahoratini shakllantirish, texnikasini o'stirish maqsadida doimiy ravishda asosiy asarlarga qo'shimcha mashqlar tavsiya etiladi. Tavsiya etiladigan maslahatlar talabning ijrodagi zaif tomonlarini rivojlantirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashqlar ustida mustaqil ishlash rivojlanayotgan o'quv tizimi yo'nalishida talabalarning dasturiga albatta mashqlar - gammalar, akkordlar, arpedjio kabilarning kiritilishi talab etiladi. Bunday mashqlar katta zallarda tomoshabinlarning oldida ijro etish darajasida bo'lmasa-da, lekin aynan shunday ish shakli keng repertuarni qamrab olishi musiqiy dunyoqarashning kengayishiga, intellektning rivojlanishi uchun o'ta zarurdir. Dasturga mustaqil o'rganiladigan asarlarning ham kiritilishi yakka ijroviy fikrlashning tarbiyaviy maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mashqlar va ketidan etyudlarni ijro etishda nafaqat oq, balki qora klavishlarda ham turli applikaturalardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Gamma, xromatik gammalar, mashqlar ustida ishlash talabning musiqa asarida uchraydigan texnik passajlar va har har xil noqulay elementlar ijro etishda, yengillik ko'nikmalariga ta'minlaydi. Talaba gamma ijro etish jarayonida sifatli ijro ko'nikmalarini ham oshirib boradi. Bundan tashqari, gamma talabaga texnik o'zlashtirishda material bo'lib xizmat qiladi. Har bir fortepiano ijrochisi gamma ijro etilayotganda oldiga aniq maqsad qo'ymog'i shart. Bu maqsad talabning texnik xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning umumiy ijrochilik qobiliyati rivojlanishiga foyda beriladigan bo'lmog'i zarur. Talabaga gamma va mashqlar asarni qiyin elementlarini sifatli ijro etishda yordam juda katta yordam beradi.

Gamma, mashqlarni ijro etish, talabning har kungi o'quv jarayonining ajralmas bir qismi bo'lishi kerak. Bu turli ijro ko'nikmalarini hosil qilishda, ularni rivojlantirish va takomillashtirish katta rol o'ynaydi. Zamonaviy musiqa asarlarini ijro etishda, ijrochiga kun sayin murakkab talablar qo'yilmoqda. Bu asarlarni ijro etish uchun zarur

ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Ijro prinsiplarini puxta o'zlashtirish sozanda ijrosini birmuncha yengillashtiradi.

Ijrochilik apparatini muntazam ravishda tarbiyalash ishi "oddiydan murakkabga" prinsipi asosida tashkil etilishi kerak. Yangi ko'nikmani o'zlashtirish ishiga oldingi ko'nikma puxta o'zlashtirilgandan keyingina o'tish mumkin. Aks holda talaba oldiga qo'yilgan vazifa o'ta murakkablashib ketishi mumkin. Shu sababli ijro texnikasining turli elementlarini o'rganishda uzviy bog'liqlik prinsipiga amal qilish zarur bo'ladi.

Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligining oshirilishiga muhim e'tibor qaratiladi. Shuning uchun o'qitish dasturiga instruktiv asarlar - mashqlar, etyudlar, virtuoz kuylar kiritilgan. Ko'zlangan maqsad talabalarda umummusiqiy tushunchalarni kengaytirish hisoblanadi. Bu sohada yig'ilgan natijalar notadan o'qish, tinglab chalib berish, transportlash, musiqiy ijro etish o'ta muhimdir. Notaga qarab o'qish ijro malakasi- bilim va mahoratni o'z ichiga oladigan yaxlit tizim bo'lib, ularga vizual tarbiya, tinglab tushuna bilish va harakat davomida notani tezlik bilan kuzata bilish ko'nikmalari kiradi. Tinglab chalish - musiqiy eshitish va harakatdagi eshitish tushunchalaridan tashkil topadi. Transportlash harakatdagi eshitish va lad-tonal munosabatlarning o'zaro mustahkam bog'liqligini talab etadi.

Mashg'ulot jarayonida nazariy va tarixiy ma'lumotlardan imkon boricha ko'proq foydalanish, talaba-sozandaning ongini konkret misollarga asoslangan holda keng, nazariy tasavvur va tushunchalar bilan boyitib borish shu prinsipning asosini tashkil qiladi. Talaba-sozandalarning musiqa materiali bilan ishlashida ularning mustaqillik hamda tashabbuskorligini to'la ishga solish - to'rtinchi prinsip mazmuni tashkil etadi. Bu prinsipning mohiyati shundaki dars jarayonida talabalarning mustaqilligi hamda tashabbuskorliklari natijasida ularning rivojlanishlari ta'minlanadi.

Musiqa ijrochiligi ta'limi yuqorida ko'rib chiqilgan prinsiplarga asoslanganda talabalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djamalova D., Utayeva N. "Fortepiano olamiga ilk qadamlar", o'quv qo'llanma. G'.G'ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.
2. Kisel E., Natanson B., Nikolayev A., Erejenskaya N. "Shkola igri na fortepiano", Izdatelstvo "Muzika", Moskva, 1975.
3. Azimov X.. Fortepiano darsligi. - T., "O'qituvchi", 1997
4. Shteynpress B., Yampolskiy I. "Enstiklopedicheskiy muzikalniy slovar", Moskva, 1959